

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA HOLLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING BOJXONA XIZMATI BILAN XAMKORLIGINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrası dotsenti.

E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.

Sadullaev Maftunbek Davron o'g'li

IIV Akademiyasi 2-o'quv kursi, 218 guruh kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14550708>

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning xamkorligi tashkiliy-huquqiy asoslari bayon etilgan. Shu bilan birga ushbu sohada erishilgan yutuqlar bilan birga sohada uchrayotgan ayrim muammo va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlarga to'xtalib o'tilgan.

Tayanch so'zlar. Ichki ishlar organlari, profilaktika, profilaktika inspektori, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar, hamkorlik, huquqiy asos.

Davlatning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishida, iqtisodiy xavfsizlik masalalarining ta'minlanishida eng muhim muammolardan biri tashqi iqtisodiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashishdir. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasida bojxona organlarining faoliyati qonunchilik tizimi asosida, bir qator normalar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 18 oktyabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi 502-sonli qonuni va 2016 yil 20 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi O'RQ-400-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish jarayoni mustahkamlab qo'yilgan.

Respublikada jinoyatchilikning oldini olish borsida, Bojxona xizmatining Ichki ishlar organlari bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning oldini olish, fosh etish va tergov qilishga, O'zbekiston Respublikasi hududiga qurol-yarog', giyohvand moddalar, qalbakilashtirilgan mahsulotlar, valyuta hamda madaniy boyliklar va tarixiy yodgorliklarni noqonuniy olib chiqish va olib kirishni to'xtatishga, shuningdek, shu kabi huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabab va sharoitlarni aniqlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 2008 yil 7 yanvar qonunining qabul qilinganligi, birinchidan, jamiyatda bolalar huquqlari kafolatlarni ta'minlash tizimini belgilab bergan bo'lsa, ikkinchidan, bola huquqlari kafolatlarni ta'minlash orqali ular orasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi 2010 yil 29 sentyabr qonuni "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida ko'rsatilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsizligi, qarovsizligi va huquqbuzarliklarining

profilaktikasini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona kodeksi normalariga rioya qilgan holda, O'zbekiston Respublikasining (2018 yil 18 oktyabr. 502-son) yangi tahrirdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonunining 5-moddasiga asosan hamkorlikni amalga oshiradi. Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining qonun darajasida tartibga solinganligi bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilsak, quyidagi qonunlarning ob'ekti doirasida mazkur bo'linmalar hamkorligi amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin: Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi hamda 2000 yil 25 maydagi "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunlari asosida, ayrim faoliyatlarni litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilishtartibga solingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 4 yanvardagi "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni bilan ushbu bo'linmalarning hududda fuqaroviy va xizmat qurollarining hamda ular o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallar, shuningdek pirotexnika buyumlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasida hamkorligi amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlari tomonidan favqulotda vaziyatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqarolar muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishda Prokuratura, Davlat havfsizlik xizmati va Bojxona organlari bilan hamkorliklari O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonuni normalari bilan tartibga solingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni Ichki ishlar organlari terrorizmga qarshi kurashish, xususan uning oldini olish bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy manba bo'lib, ularning bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligini belgilab beradi. Qonunning normalariga ko'ra, mazkur bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlik ma'muriy hududlarda terrorizm va uning turli-xil ko'rinishlariga qarshi ko'rashish, fuqarolarning diniy ibodat libosida yurishini oldini olish, ichki ishlar organlarida diniy ekstremizm oqimi xayrixohi sifatida hisobda turuvchi shaxslar bilan umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlar majmuini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Bojxona xizmatining Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari bilan hamkorligi bojxona ishining rivojlanishi va faoliyatida alohida o'rin egallaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu sohalar orasidagi yaqin hamkorlik mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni qalbaki va kontrafakt mahsulotlardan himoya qiladi, bu esa ushbu mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqarishga ko'maklashadi. Hozirgi kunda ularning o'zaro munosabatlari ancha yuqori darajada shakllangan bo'lib, bojxona organlarining ham ichki idoraviy hamkorligini, ham Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari bilan idoralararo hamkorlikni amalga oshirishning muayyan shakllari mavjud. Bojxona organlarining IIO profilaktika xizmati bilan o'zaro hamkorligi davlat byudjetini to'ldiradi, bu esa mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini oshiradi va umuman olganda mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanish sur'atiga, shuningdek, fuqarolarning iqtisodiy xavfsizligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bojxona xizmati va Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlarining muvofiqlashtirgan

qo'shma faoliyati quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari rahbarlarining muvofiqlashtiruvchi kengashlarini o'tkazish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo'yicha axborot almashish;
- kelishilgan harakatlarni amalga oshirish, tekshiruvlar o'tkazish va Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlariga jinoyatchilikka qarshi kurashishda ko'maklashish, ijobiy tajribani o'rganish va yoyish maqsadida hududlarga birgalikda tashrif buyurish;
- aniq jinoyatlarni tergov qilish uchun tashkil etilgan tergov-tezkor guruhlarini tarkibidan ishtirok etish;
- jinoyatlarni aniqlash va oldini olish, shuningdek, ularning sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish uchun qo'shma maqsadli tadbirlar o'tkazish;
- xodimlarning malakasini oshirish maqsadida tomonlarning imkoniyatlaridan o'zaro foydalanish, qo'shma seminarlar va anjumanlar tashkil etish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyati jarayonida o'z xavfsizligini ta'minlashda o'zaro yordam ko'rsatish;
- qo'shma buyruqlar, ko'rsatmalar chiqarish, axborot xatlari va boshqa tashkiliy-farmoyish hujjatlarini tayyorlash;
- qo'shma byulletenlar (to'plamlar) va boshqa axborot nashrlarini nashr etish;
- muvofiqlashtirish faoliyatining kelishilgan rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash va boshqalar.

Hozirgi davrda ushbu vazifani samarali amalga oshirish mexanizmi intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilik sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olishda turli tashkilot va muassasalarning o'zaro hamkorligi bo'lmasa mumkin emas. Kontrafakt tovarlarga qarshi kurashda bojxona xizmati ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlari intellektual mulk, patent va tovar belgilari bo'yicha federal xizmati bilan faol hamkorlik olib boradi.

Davlat bojxona xizmati faoliyati hududlarda II OI lari profilaktika xizmatlari bilan quyidagi o'zaro hamkorlik shakllari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda:

intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilik buzilishi alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi materiallarni hududiy ichki ishlar organlari va transport prokuraturasiga topshirish tartibi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hududiy boshqarmalari bilan hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzish;

faoliyat yo'nalishlari bo'yicha qo'shma ishchi guruhlar tashkil etish; qo'shma tezkor-qidiruv va tekshirish tadbirlarini o'tkazish;

hamda faoliyat yo'nalishlari bo'yicha qo'shma rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ushbu shakllar bojxona organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida bir qator qonun normalarida belgilangan qonunchilik normalari buzilishi alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi materiallarni boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish kabi o'zaro hamkorlik shakli o'rganilganda, har qanday boshqa bojxona organi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif sifatida idoralararo kelishuvlarda "teskari aloqa" mexanizmini tartibga solish tavsiya etiladi. Bu mexanizm yuborilgan materiallarni qayta ishlashning aniq algoritmi va tegishli organga yuboriladigan hisobot tavsifini o'z ichiga olishi kerak.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkinki, bojxona organlari ko'plab vazifalarni bajaradi, ular tizimida o'z vakolatlari doirasida bojxona ittifoqi hududida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni ta'minlash muhim o'rin egallaydi.

Ushbu vazifani amalga oshirish bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratini o'tkazish, tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish tartibiga rioya etilishini ta'minlash hamda zamonaviy bojxona organlarining boshqa asosiy funksiyalari bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрел кунги “Жазони ижро этиш муассасаларидан бўшатилган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат ўрнатиш тўғрисида”ги қонуни
3. Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
4. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9-декабрдаги“Сурункали алкоголизм ёки гиёҳвандликка мубтало бўлган беморларни мажбурий даволаш тўғрисида”ги қонуни
5. Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
8. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
9. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
10. Таштемиров А. А. и др. Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.
11. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." World of Science 6.6 (2023): 169-175.